

## TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA HAMKORLIK STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI

**Egamov Feruz**

Qiziltepa tumani 2-son kasb-hunar maktabi tarix fani o‘qituvchisi.

### **ANNOTATSIYA**

*Tarix fani o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlarida o‘z metodik tayyorgarliklarini takomillashtirib borishlari bugungi kunning eng zarur va dolzarb jarayonlaridan biridir. Bu borada tarix o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligi, ta’lim amaliyoti variativligi, innovatsion muhitda texnika vositalaridan foydalanish, kompleks rivojlanish, multimedia tasvirli ma’lumotlarni qo‘llash, dars jarayonida hamkorlik strategiyalaridan foydalanish globallashtiruv sharoitida tarix fani o‘qituvchisining komponentligini oshirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, “Jahon tarixi”, 1918-1939 yillarda Fransiya, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro”, “Konseptual jadval”, “Venn texnologiyasi”, “Tchizma”, “Klaster”.

### **АННОТАЦИЯ**

*Это один из самых необходимых и актуальных процессов современного учителя истории по совершенствованию своей методической подготовки на уроках. В связи с этим теоретическая и практическая подготовка учителей истории, разнообразие учебной практики, использование технических средств в инновационной среде, комплексное развитие, использование мультимедийной визуальной информации, использование стратегий сотрудничества в ходе урока. важны для повышения компетентности учителя истории в условиях глобализации.*

### **ABSTRACT**

*It is one of the most necessary and urgent processes of today’s history teachers to improve their methodical preparation during the lessons. In this regard, the theoretical and practical training of history teachers, the variety of educational practice, the use of technical tools in an innovative environment, complex development, the use of multimedia visual information, the use of cooperation strategies in the course of the lesson are important for increasing the competence of the history teacher in the context of globalization. is one of the tasks.*

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fani oʻquv dasturida Gʻarbiy Yevropa davlatlaridan biri - Fransiya tarixini oʻrganish uchun ham mavzular ajratilgan. Shuningdek, “1918-1939 yillarda Fransiya” mavzusi boʻyicha darslik va oʻquv metodik majmualarda yetarli maʼlumotlar mavjud. Biroq dars samaradorligini yanada oshirishni oʻz oldiga maqsad qilib olgan oʻqituvchi darsning yangi mavzuni bayoni bosqichini ikki qismga ajratishi lozim. Darsning birinchi bosqichida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qayd etilgach, nazariy maʼlumotlarni yetkazishga asoslangan ikkinchi qismda qoʻyidagi qoʻshimcha materiallarni taqdim etilishiga tavsiya beriladi.

“1917-1930 yillarda Turkiston mintaqasida chop etilgan davriy matbuot organlari sahifalaridan mazkur mavzu uchun qoʻshimcha va muhim maʼlumotlar olish imkoniyati mavjud. Jumladan, 1920-1930 yillarda Buxoroda nashr yuzini koʻrgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida Fransiyaning Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda olib borgan tashqi siyosati hamda iqtisodiy va madaniy ahvoliga oid koʻpgina maqola va xabarlar mavjud. Buxoro milliy matbuoti sahifalarida chop etilgan 1920 yillarning boshlarida Fransiyaning Yevropada gegemonlik daʼvosini amalga oshirish yoʻlidagi saʼy-harakatlarini isbotlaydigan bir qator birlamchi manbalar talabalarga havola etilsa maqsadga muvofiq.”<sup>1</sup>

“Buxoro axbori” gazetasining 1923 yillardagi sonlarida “FransiyaGermaniya orasida”, “Rur masalasi tevaragida” kabi ruknlar ostida 10 dan ortiq maqola va xabarlar bosilgan. “Fransuzlarning Vestfaliyaga harakati”, “Rur oʻlkasida fransuzlarga qarshi namoyish”, “Rur oʻlkasida fransuz askarlarining soni”, “Fransiya tarafidan ishgʻol etilgʻon Germaniya oʻlkalarida harbiy holat”, “Vahshiyona muomalalar”, “Ahvol jiddiylashadur”, “Fransuzlar ishgʻol qilmakdadurlar” kabi qisqa xabarlar orqali talabalarga qoʻshimcha maʼlumotlarni taqdim etish mumkin. Jumladan, “Vahshiyona muomalalar” maqolasidan: “Germaniyaning Rur oʻlkasini oʻz zulmiga olgʻon fransuz istilo hokimiyati toshkoʻmirlarni nizo kuchi bilan Fransiya gʻa uzotmoqqa boshlogʻon.

“Butun mehmonxonalar gʻa, 1- va 2-sinf maktablargʻa fransuz zobitlari va askarlari joylashtirilib, muallim va oʻquvchilar ochiq havogʻa chiqarib tashlangʻon. Isiniya shahrida 400 hujrada iborat boʻlgʻon mehmonxonaga Fransiya zobitlari joylashib, maorif binolarigʻa esa askarlar qoyilgʻon. Fransuzlar yerli nemis aholigʻa bundan boshqa ham hiyla vahshiyliklar va vahshiyona muomalalarda boʻlgʻonlar” kabi fikrlar keltirilsa, talabaning mazkur mavzu borasidagi tushunchalari yanada kengayadi. Shuningdek, Buxoro mahalliy matbuotida nega aynan Fransiya tarixiga oid materiallar koʻplab chop etilganligini tarix oʻqituvchisi oʻzining innovatsion yondashuvi asosida

<sup>1</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2017 yil 28 avgustdagi 607-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fan dasturi. – Toshkent. 2017. -45 bet.

shunday izohlashi zarurki, 1922 yildan boshlab BXSR Germaniya o'rtasida savdo, madaniy-texnikaviy aloqalar yo'lga qo'yilganli tufayli Fransiyaning Germaniyaga hujumi - bu bizning do'stlarimizga qilingan tajovuz deb qaralganidir."<sup>1</sup>

“Yangi mavzu bayoni bosqichida o'qituvchi yuqorida keltirilgan qo'shimcha materiallarni tanishtirganidan so'ng, hamkorlik strategiyalarning eng ommaviy texnologiyalari hisoblangan “Konseptual jadval”, “Venn texnologiyasi”, “Tchizma”, “Klaster” kabi grafik organayzerlar orqali o'quv mashg'ulotini mustahkamlash bosqichi uchun qo'yidagi tavsiyalar beriladi[7]: Tadqiqot metodologiyasi. “Konseptual jadval” dasturi orqali “1918-1939 yillarda Fransiya” mavzusidagi muammoli voqeyeliklarning sabab va omillari, uning yechimi, tegishli yakuniy xulosalar asosida amalga oshiriladi.”<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba'zida u bir qancha o'n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O'quv jarayonida o'qituvchi bir yoki bir necha mashg'ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida talabani ilgari turli fanlariga oid o'zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub'ektiv yangi bilimga olib kelishi kerak bo'ladi. Ya'ni, bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o'tish bilan bog'liq bo'lib, u fanlararo aloqalarni o'rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>1</sup> “Buxoro axbori” gazetasi BXSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi matbuot organi bo'lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o'zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg'ish rangli o'rtacha sifatdagi qog'ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan “Ozod Buxoro” nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to'liq taxlamlari bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O'zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2012 y. 175 bet.

<sup>2</sup> Buxoro axbori. 129-son, 1923 yil 28 yanvar; 131-son, 1923 yil 5 fevral; 132-son, 1923 yil 5 fevral; 133-son, 1923 yil 11 fevral; 136-son, 1923 yil 23 fevral; 157-son. 1923 yil 17 aprel.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 28 avgustdagi 607-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Jahon tarixi” fan dasturi. – Toshkent. 2017. -45 bet.

2. “Buxoro axbori” gazetasi BXS Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi matbuot organi bo‘lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan. Gazeta o‘zbek tilida, isloh qilingan arab imlosida, sarg‘ish rangli o‘rtacha sifatdagi qog‘ozda, haftada 1-2 marta, 1500-2000 nusxada chiqarilgan. 1923 yil 16 oktyabrdan “Ozod Buxoro” nomida gazeta nashr qilina boshlangan. Bu gazeta 1930 yil oktyabr oyigacha chiqib turgan. Gazetalarning to‘liq taxlamlari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (O‘zbekiston MDA) va Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati markaziy kutubxonasida saqlanmoqda. Bu haqda qarang: Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Monografiya. -Toshkent, “ABU MATBUOT - KONSALT”, 2012 y. 175 bet.

3. Buxoro axbori. 129-son, 1923 yil 28 yanvar; 131-son, 1923 yil 5 fevral; 132-son, 1923 yil 5 fevral; 133-son, 1923 yil 11 fevral; 136-son, 1923 yil 23 fevral; 157-son. 1923 yil 17 aprel.